

Bani Isroil Misrda



14:00 / 11.07.2021 6266

Uzoq yillar misrliklar (o'z ahdlarida turib), Kan'ondan kelganlarning fazlini hamisha yodda saqlar edilar. Kan'onliklar «Bani Isroil» – mol-mulk va sharaf egalari deyilar edi. Lekin, vaqt o'tishi bilan (odamlar ham asta-sekin) o'zgardi. Xulqlar yomonlashdi, kishilar Allohga da'vat va xaloyiqni Allohga chaqirishni unutib, mol-dunyoga berilib ketdilar. Endi odamlar, Bani Isroilga, ularning ota-bobolariga qaragan ko'zdan boshqacha ko'z bilan qaray boshlashdi. Chunki, Bani Isroil faqat nasl-nasabi e'tibori bilangina farqlanib turardi. Boshqa hech narsada o'zgalardan farqi qolmagandi. Endi kishilar ularning boylariga hasad bilan, faqirlariga nafrat bilan qaray boshlashdi. Misrliklar Ya'qub avlodiga chetdan kelib qolgan begonalardek qaraydigan bo'lishdi. Misrliklar: «Ya'qub avlodining Misrga nisbatan hech qanday haqqi yo'q. Misr misrliklarniki» degan e'tiqodda edilar. Hatto ba'zi misrliklar Yusufni ham nazar-pisand qilmay qo'yishgandi: «Yusuf Kan'ondan kelgan bir begona. Uni Misr hokimi sotib olgan. Aslida Kan'onlikning Misr ustidan hukm yuritishga sira haqqi yo'q. Juda ko'pchilik odamlar Yusufning fazilati, saxovati va yaxshiliklarini unutdilar.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad